


NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-sentabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 939,6 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 118,9 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-sentabr, mln.AQSh dollari)

Ma'lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 436,3 mln.AQSh dollariga (22,3 % ga ko'paydi) va import hajmi 503,3 mln.AQSh dollariga (16,2 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 67,1 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2022- yil yanvar-sentabr, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	304,1	220,6	83,5	32,4
Xitoy	212,7	27,9	184,9	22,6
Qozog'iston	77,1	30,8	46,3	8,2
Turkiya	75,1	35,7	39,4	8,0
Qirg'iziston	64,1	51,5	12,6	6,8
Germaniya	24,7	7,1	17,7	2,6
Belorussiya	23,6	1,8	21,8	2,5
Litva	17,1	4,9	12,3	1,8
Polsha	16,0	7,5	8,4	1,7
Koreya Respublikasi	14,3	1,7	12,6	1,5

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 70 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (32,4 %), Xitoy Xalq Respublikasida (22,6 %), Qozog'istonda (8,2 %), Turkiyada (8,0 %), Qirg'iz Respublikasida (6,8%), Germaniya (2,6 %) va Belorussiya (2,5 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Respublika Koreya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ikta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (304,1 mln.AQSh.dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (212,7 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, ming.AQSh.dollari)**



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	162609,3	223390,9	304084,8
Eksport	99113,7	148806,1	220587,0
Import	63495,7	74584,8	83497,8
Saldo	35618,0	74221,4	137089,1
Xitoy	150647,5	197021,8	212749,9
Eksport	25691,3	53777,7	27886,3
Import	124956,2	143244,1	184863,6
Saldo	-99264,9	-89466,3	-156977,4
Qozog'iston	81084,4	84779,7	77090,8
Eksport	38470,3	35440,6	30835,5
Import	42614,1	49339,1	46255,3
Saldo	-4143,8	-13898,5	-15419,8
Turkiya	39490,4	75714,9	75063,6
Eksport	11452,9	24867,3	35704,9

Import	28037,5	50847,6	39358,7
Saldo	-16584,6	-25980,3	-3653,8
Qirg'iziston	94772,9	52644,8	64103,4
Eksport	89122,3	47102,2	51493,2
Import	5650,6	5542,6	12610,1
Saldo	83471,7	41559,6	38883,1
Germaniya	14484,4	11318,5	24742,4
Eksport	3263,1	2181,5	7079,7
Import	11221,2	9137,1	17662,7
Saldo	-7958,1	-6955,6	-10583,0
Belorussiya	2179,0	12900,3	23615,7
Eksport	1685,2	1760,7	1789,8
Import	493,8	11139,5	21825,8
Saldo	1191,5	-9378,8	-20036,0
Litva	2100,8	3418,7	17136,0
Eksport	120,2	524,1	4858,3
Import	1980,6	2894,6	12277,7
Saldo	-1860,5	-2370,5	-7419,4
Polsha	6842,6	11639,5	15951,3
Eksport	5098,0	5994,3	7512,3
Import	1744,6	5645,2	8438,9
Saldo	3353,3	349,1	-926,6
Koreya Respublikasi	13206,3	8450,9	14270,3
Eksport	198,1	299,0	1696,1
Import	13008,2	8151,9	12574,2
Saldo	-12810,1	-7852,9	-10878,1
Turkmaniston	4332,0	8299,8	10779,4
Eksport	2510,2	2527,2	5464,3
Import	1821,9	5772,7	5315,1
Saldo	688,3	-3245,5	149,1
Ukraina	8660,6	12284,6	9741,9
Eksport	6677,2	7197,1	5676,0
Import	1983,4	5087,5	4065,9
Saldo	4693,8	2109,5	1610,0

Hindiston	8756,7	14007,5	8360,1
Eksport	227,1	656,1	462,5
Import	8529,6	13351,4	7897,6
Saldo	-8302,6	-12695,3	-7435,1
Tojikiston	4818,5	4962,1	8108,4
Eksport	3615,2	3774,6	5245,3
Import	1203,3	1187,5	2863,1
Saldo	2411,8	2587,1	2382,1
Frantsiya	3561,5	5630,0	7771,2
Eksport	-	-	67,8
Import	3561,5	5630,0	7703,4
Saldo	-3561,5	-5630,0	-7635,7
Pokiston	2550,4	1217,7	6903,6
Eksport	2533,3	688,5	5269,9
Import	17,1	529,2	1633,7
Saldo	2516,1	159,3	3636,3
Eron	2318,2	5896,2	6231,2
Eksport	529,9	1413,8	3165,2
Import	1788,2	4482,4	3066,0
Saldo	-1258,3	-3068,6	99,2
Malayziya	7290,2	4769,4	5362,0
Eksport	-	1,5	-
Import	7290,2	4767,9	5362,0
Saldo	-7290,2	-4766,4	-5362,0
Italiya	3924,3	6111,9	4593,8
Eksport	1367,8	867,0	1325,2
Import	2556,5	5244,9	3268,6
Saldo	-1188,6	-4378,0	-1943,4
Indoneziya	737,4	1648,3	3870,2
Eksport	72,5	-	-
Import	664,9	1648,3	3870,2
Saldo	-592,4	-1648,3	-3870,2

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022 - yil yanvar-sentabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 53,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 2,5 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLUKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-sentabr % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022- yil yanvar-sentabr oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (2,5 % ga) va jami TSA dagi ulushi 46,4 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-sentabr)

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning eksportyorlar soni 449 tani tashkil etib, ular tomonidan 436,3 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 22,3 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,8 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (55,0 %), Xar-xil tayyor mahsulotlar (21,5 %) va Oziq ovqat mahsulotlari (15,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-sentabr)

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	436,3	324,8	111,4	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	67,5	44,2	23,3	15,5	13,6	20,9
Ichimliklar va tamaki	1,0	0,9	-	0,2	0,3	-
Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	6,1	1,6	4,5	1,4	0,5	4,0
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,1	0,9	0,2	0,3	0,3	0,2
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	11,2	6,3	4,9	2,6	1,9	4,4
Ishlab chiqarilgan mahsulotlar	239,8	175,2	64,6	55,0	53,9	58,0
Mashina va transport uskunalari	6,2	6,1	0,1	1,4	1,9	0,1
Har xil tayyor mahsulotlar	94,0	84,8	9,2	21,5	26,1	8,2
Xizmatlar	9,4	4,8	4,6	2,2	1,5	4,1

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport

hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-sentabr, % va ulushi)




2022- yilning yanvar-sentabr oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 50,6 %), Qirg'iz Respublikasi (11,8 %), Turkiya (8,2 %), Xitoy Xalq Respublikasi (6,4 %),

Qozog'iston (7,1 %), Polsha (1,7 %) va Germaniya (1,6 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 87,4 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2022 – yilning mos davrida 52 davlatga eksport amaliyotini amalga oshirgan.

**NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-sentabr, % da)**



**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-sentabr)**

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	148806,1	220587,0	150,1	148,2	1	1
Qirg'iziston	47102,2	51493,2	52,9	109,3	3	2
Turkiya	24867,3	35704,9	217,1	143,6	5	3
Qozog'iston	35440,6	30835,5	92,1	87,0	4	4
Xitoy	53777,7	27886,3	209,3	51,9	2	5
Polsha	5994,3	7512,3	117,6	125,3	7	6
Germaniya	2181,5	7079,7	66,9	3,2 m.	11	7
Ukraina	7197,1	5676,0	107,8	78,9	6	8
Turkmaniston	2527,2	5464,3	100,7	216,2	10	9
Pokiston	688,5	5269,9	27,2	7,7 m.	17	10
Tojikiston	3774,6	5245,3	104,4	139,0	8	11
Litva	524,1	4858,3	4,4 m.	9,3 m.	19	12
Afg'oniston	3519,2	3282,4	168,0	93,3	9	13
Eron	1413,8	3165,2	266,8	223,9	14	14
Ozarbajjon	566,0	1806,5	80,9	3,2 m.	18	15
Belorussiya	1760,7	1789,8	104,5	101,7	12	16
Koreya Respublikasi	299,0	1696,1	150,9	5,7 m.	20	17
Moldova Respublikasi	1490,9	1537,0	163,5	103,1	13	18
Gruziya	1072,8	1521,7	189,2	141,8	15	19
Belgiya	979,8	1494,6	42,3 m.	152,5	16	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 9 426,5 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,2 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 90,4 % ga ka'mayganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 239,8 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 55,0 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 124,8 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-sentabr)

2022 - yil yanvar-sentabr oyida import hajmi 503,3 mln.AQSh dollarini va 2021-yilning mos davriga nisbatan 116,2 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (33,9 %), Sanoat mahsulotlari (23,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat va tirik hayvonlar
- Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi
- Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar
- Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar
- Sanoat mahsulotlari
- Mashinalar va transport uskunalari
- Turli xil tayyor mahsulotlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 70,0 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 503,3 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,8 ming.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-sentabr)**



XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	503,3	177,3	326,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	74,1	53,2	20,9	14,7	30,0	6,4
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari noziq-ovqat hisoblanadi	31,7	25,7	6,0	6,3	14,5	1,8
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	17,1	16,5	0,6	3,4	9,3	0,2
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	16,6	8,1	8,5	3,3	4,6	2,6
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	63,1	14,8	48,2	12,5	8,4	14,8
Sanoat mahsulotlari	116,6	39,0	77,7	23,2	22,0	23,8
Mashinalar va transport uskunalari	170,4	17,9	152,5	33,9	10,1	46,8
Turli xil tayyor mahsulotlar	13,7	2,0	11,7	2,7	1,1	3,6

Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (30,0 %) Sanoat mahsulotlari (22,0 %) ni MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush Mashina va transport uskunalari (46,8 %), Sanoat mahsulotlari (23,8 %) va hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2021- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 11,4 % ga, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 21,3 % ga va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 17,5 % ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR
VA XIZMATLAR IMPORTI
(yanvar-sentabr, % va ulushi)**




Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 36,7 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 16,6 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.

TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.
Xitoy	143244,1	184863,6	114,6	129,1	1	1
Rossiya Federatsiyasi	74584,8	83497,8	117,5	112,0	2	2
Qozog'iston	49339,1	46255,3	115,8	93,7	4	3
Turkiya	50847,6	39358,7	181,4	77,4	3	4
Belorussiya	11139,5	21825,8	2255,9	195,9	6	5
Germaniya	9137,1	17662,7	81,4	193,3	7	6
Qirg'iziston	5542,6	12610,1	98,1	227,5	12	7
Koreya Respublikasi	8151,9	12574,2	62,7	154,2	8	8
Litva	2894,6	12277,7	146,1	424,2	17	9
Polsha	5645,2	8438,9	323,6	149,5	10	10
Hindiston	13351,4	7897,6	156,5	59,2	5	11
Frantsiya	5630,0	7703,4	158,1	136,8	11	12
Malayziya	4767,9	5362,0	65,4	112,5	15	13
Turkmaniston	5772,7	5315,1	316,9	92,1	9	14
Ukraina	5087,5	4065,9	256,5	79,9	14	15
Indoneziya	1648,3	3870,2	247,9	234,8	20	16
Latviya	2486,8	3309,9	169,5	133,1	18	17
Italiya	5244,9	3268,6	205,2	62,3	13	18
Shveysariya	2254,0	3199,5	18,6	141,9	19	19
Eron	4482,4	3066,0	250,7	68,4	16	20

2021- yining mos davriga nisbatan 62 davlatdan 64 davlatga ko'paydi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-sentabr % da)**



Sakkista yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog`iston, Belarus, Germaniya, Qirg`iz Respublika) jami importning 80,7 % ini tashkil qiladi, bu 406 074,1 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunarlar, shuningdek, ularning qismlari importining o`shishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog`iston, Turkiya va Belarus tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo`limi
Tel.:(69)-211-72-00